

ONA TILI DARSLARIDA INTERFAOL METODLARNING O'RNI VA AHAMIYATI

Qahhorova Sharofat Abdujabbor qizi

Farg'ona viloyati Oltiariq tumani

1-umumiy o'rta ta'lim maktabi

ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Anotatsiya: *ushbu maqolada ona tili darslarida kerak bo'ladigan interfaol metodlarning ahamiyati va ularning tutgan o'rni haqida so'z yuritiladi. Dars jarayonlarida interfaol metodlardan foydalanish o'quvchilarning bilim va ko'nikmasini oshirishga, dunyoqarashini boyitishga va tezkor fikrlashga, mantiqiy o'ylashga yordam beradi.*

Kalit so'zlar: *interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, metodika, "Lingvopoetist" metodi, "Insert" metodi.*

Ma'lumki, hozirgi globallashuv davrida yurtimizda barcha sohalar qatori ta'lim sohasiga har qachongidan ham e'tibor va talab kuchaydi. Sohada tub o'zgarishlar amalga oshirilib, yoshlarning bilim saviyasi va ko'nikmalarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari ishlab chiqildi. Ular asta-sekinlik bilan bosqichma-bosqich amalga oshirib kelinmoqda. Jahon andozasidagi zamonaviy-innovatsion jihozlar bilan ta'minlanib, yangi tashkil etilgan oliy ta'lim muassasalari (OTM), tibbiyot bilim yurtlari, xususiy va ixtisoslashtirilgan maktablar fikrimiz dalilidir.

Bilim va tajriba yillar davomida shakllanadi, o'zlashtiriladi, juda katta mashaqqat evaziga erishiladi. Metodika esa o'sha davr talab va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda qo'llanadi, keng jamoatchilikka tatbiq etiladi. Ushbu maqolada esa metodika va metod haqida to'xtalib o'tiladi hamda hozirgi ta'lim tizimi uchun qanday metodlar qo'llash kerakligi to'g'risida mulohaza yuritiladi.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, metodika – biror ishni maqsadga muvofiq o'tkazish o'tkazish metodlari, usullari va yo'llari majmuyi. Demak, metodika ma'lum metodlar va usullardan iborat. metod – (yunoncha “methods”-yo'l, axloq usuli) tabiat va ijtimoiy hayot hodisalarini bilish, tadqiq qilish usuli. Faoliyat, harakatning yo'li, usuli yoki qiyofasi, shakli, ko'rinishi.

Inson faoliyatining barcha sohalarida tegishli metodlardan foydalaniladi. Bu metodlarning umumiy belgisini hisobga olgan holda ularni borliqni amaliy yoki nazariy o'zlashtirish operatsiyalari va yo'llarining yig'indisi deyish mumkin. Ushbu maqolada metod tushunchasini ta'lim-tarbiya jarayoni bilan bog'liq jihatlari ko'rib chiqiladi. Shunga muvofiq, ta'lim metodlari bilan bog'liq metod va usullarni ko'rib chiqamiz. Ta'lim metodlari orasida eng samarali natija ko'rsatadigan turi, albatta, interfaol metodlardir.

Interfaol metod deganda, ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metod tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Quyida interfaol metodlarning bir nechtasiga to'xtalib o'tamiz.

“Lingvopoetist” metodi. Bu metod o'quvchilarning xotirasini mustahkamlashga, shaxsiy fikrni shakllanishiga, mustaqil fikrlashga ko'mak beruvchi eng samarali interfaol metodlardan hisoblanadi. Metod 2 bosqichda olib boriladi. Birinchi bosqichda o'quvchilarga ma'lum bir badiiy asar yoki she'rdan (berilgan matnlar adabiyot darsida o'tilgan bo'lishligi shart) parcha o'qib beriladi, ammo asar nomi va muallifi haqida ma'lumot berilmaydi. Keyin ikkinchi bosqichda aqliy hujum tarzda *“agar siz ushbu fikrni aytmoqchi bo'lsangiz, uni qanday ifodalagan bo'lardingiz?”* mazmunidagi savol o'rtaga tashlanadi va matnni g'oya saqlangan holda o'zgartirish topshiriladi. Har bir o'quvchi topshiriqni yozma bajaradi, ifodali o'qib beradi. Ayniqsa, Vatan, ota-ona, tabiat mazmunidagi nasriy va she'riy matnlar misol sifatida tanlanib, takrorlash darslarida qo'llansa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Dars so'ngida matnlar tarkibidagi gaplar tahlilga tortiladi. Eng yaxshi matnlar aniqlanib, matn muallifiga *“Lingvopoetist”* unvoni beriladi.

“Insert” metodi. Ushbu usul o'qituvchiga o'quvchilarning matndagi ma'lumotni tushunish darajasini aniqlashga yordam beradi. O'quvchilar berilgan matnni o'qiydilar va matn hoshiyasidagi bilaman (V), bilmayman (-), yangi ma'lumot (+), tushunarsiz (?) degan qarashlarni anglatuvchi maxsus belgilar qo'yib boradilar. Bu usul talabalarni faol fikrlashga chorlaydi, bilgan ma'lumotlarini yangi ma'lumotlar bilan bog'lashga o'rgatadi, matn mazmunini tushunib olishga qiziqish uyg'otadi. *“Insert”* metodi, ayniqsa, ma'lum fanlarga ixtisoslashtirilgan maktab o'qituvchilari va o'quvchilari uchun anchagina qulay hamda samaralidir. Chuqurlashtirilgan fanlarga oid matnlar ona tili darsida o'quvchilarga taqdim etiladi va ular shu asosda topshiriqni bajaradilar. Jumladan, biologiya faniga ixtisoslashgan maktablarda ushbu fanga oid ma'lum bir matn (masalan, hujayra va unga berilgan ta'rif) ona tili darsida o'quvchilarga topshiriq sifatida beriladi, o'quvchilar esa *“Insert”* usulidan foydalanib, matnni tahlil qiladilar. Bu usul bevosita fanlar integratsiyalashuvini ham ta'minlaydi. Tashkil qilingan mashg'ulotlarni juftlikda, kichik-kichik guruhda yoki mustaqil ish tarzida amalga oshirish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, har bir pedagog ta'lim va tarbiya jarayonini o'z imkoniyati, kasbiy mahoratidan kelib chiqqan holda ijodiy tashkil qilishi kerak. Darslarda innovatsion texnologiyalarni qo'llash o'quvchilarda mustaqil, erkin va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, ulardan faollikni, o'zlashtirilayotgan ma'lumotlarni anglashda ijodiy yondashuvlarni talab qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. 1-jild, – T.: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashri. 2006.
2. Zaitova O. Talabalarning ixtisoslik nutqini shakllantirishda interfaol metodlarni qo'llash. “Til va adabiyot ta'limi” jurnali. 2010-yil, 4-son.